

ISLOM FALSAFASIDA ODOB AXLOQ ME'YORLARI

O'qituvchi, **Fazliddin TOJIYEV**

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

ORCID: 0009-0001-0088-8316

***Annotatsiya.** Maqolada islom falsafasi, islom dinining asl mohiyati axloqdan iborat ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Maqolada, asosan, odob-axloq me'yorlarini yoritib berishda Qur'oni Karimda keltirilgan oyatlar hamda Muhammad Payg'ambardan keltirilgan sahih hadislardan foydalanildi. Maqolada hozirgi kunda musulmonlar orasida vujudga kelgan va tobora o'sib borayotgan axloqsizliklar va ularning insonlar turmush darajasiga zararlari haqida ma'lumotlar ilmiy va statistik ma'lumotlarga tayangan holda ochib berilgan. Barchamizga ma'lumki, bugungi jadallashib borayotgan va shaxslar orasida yo'qolib borayotgan xulq masalalari dolzarb mavzuga aylanmoqda. Bu maqolada Muhammad Payg'ambarning go'zal xulqlaridan namunalari keltirilgan.*

***Аннотация.** В статье представлена информация об исламской философии и истинной сути исламской религии, состоящей из морали. В статье для разъяснения норм этикета использованы аяты Священного Корана и достоверные хадисы Пророка Мухаммада, да благословит его Аллах и приветствует. В статье на основе научных и статистических данных раскрыта информация о растущей безнравственности среди мусульман и ущербе, который она наносит уровню жизни людей. Как мы все знаем, проблемы поведения среди быстро растущих и исчезающих особей становятся сегодня горячей темой. В этой статье представлены примеры прекрасных качеств нашего Пророка.*

***Annotation.** The article contains information about Islamic philosophy and the fact that the true essence of Islam consists of morality. In the article, the verses of the Holy Qur'an and authentic hadiths of the Prophet Muhammad, may God bless him and grant him peace, were used to explain the norms of etiquette. In the*

article, the information about the current and growing immorality among Muslims and their damage to people's living standards is disclosed, relying on scientific and statistical data. As we all know, today's rapidly increasing and disappearing behavior issues among individuals are becoming a hot topic. This article contains examples of the beautiful qualities of our Prophet.

Kalit so'zlar: *Islom falsafasi, qur'on, payg'ambar, hadis, sunnat, odob-axloq, zohiriy-botiniy, statistika, vijdon erkinligi.*

Ключевые слова: *Исламская философия, Коран, Пророк, хадисы, сунна, мораль, наружу-внутри, статистика, свобода совести.*

Keywords: *Islamic philosophy, Koran, Prophet, hadith, sunnah, morals, outward-inward, statistics, freedom of conscience.*

Kirish. Islom axloqi, avvalo, har bir mo'minni o'z insonlik burchiga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Islom tinchlik dinidir. Islom insonparvarlik, kenglik dinidir. O'zbekistonda keying yillarda diniy bag'rikenglik, erkinlik, musulmonlar diniy amallarini bajarishi uchun keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Prezident Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz hududlari bo'ylab safari davomida xalq ichiga kirib, odamlarning turmushi, kasb-kori, hayoti va sharoiti bilan qiziqib, tashvishu muammolariga alohida e'tibor qaratmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev viloyatlarga tashrifi chog'ida joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlari bilan tanishib, keng jamoatchilik vakillari bilan uchrashdi. Davlat rahbari faollar bilan uchrashuvda viloyatda diniy-ma'rifiy ishlar masalasiga ham to'xtalib, dinimiz ravnaqi va rivoji uchun tegishli ko'rsatmalarni berdi.

Jumladan, barchamizni ilm olishda musobaqalashishga chaqirgan rahbarimiz: "Qur'onni eshitish, eshita bilish – u ma'naviyat, u ma'rifat. Qur'on hech qachon yomonlikka da'vat qilmaydi, agar uni eshitolsak, eshittira olsak – bu muvaffaqiyat bo'ladi, elimizga nur keladi", degan fikrlari tahsinga loyiqdir. Islom diniga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi.

O'zbekistonda yildan-yilga muborak Haj va Umra safarlariga borayotganlar

safi ortib, ular uchun yaratilayotgan sharoitlar ham kengaymoqda. 2022 yil sentabr oyida Toshkentga kelgan Saudiya Arabistoni Haj va umra ishlari vaziri Tavfiq bin Favzon Sh. Mirziyoyev bilan [uchrashgan edi](#). Uchrashuvda *o'zbekistonliklar uchun 2023 yilda haj kvotalari soni 24 mingta ajratilishi* haqida kelishuvga erishilgan [1].

Xalqimizning haj va umra safarlari sonining ko'payishi Prezidentdan rozilik alomatlarining ifodasidir. Hattoki diniy erkinlik huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"-deb belgilab qo'yildi [2].

Adabiyotlar sharhi. Islom axloqi... Necha-necha asrlar mobaynida shakllangan, qancha-qancha nasllar sinovidan o'tib, o'zining hayotiyiligini, hamma zamonlar va avlodlar uchun muvofiqligini, kishilik jamiyati manfaatlariga mosligini, insoniyat kamoliga, ma'naviyat taraqqiyotiga xizmat qilishini amalda tasdiqlagan, shu tufayli davrlaru ellar e'zozini qozonib, zavol bilmay yashab kelayotgan o'lmas bir ta'limot, umumbashariy hayot dasturi, ijtimoiy faoliyatning betakror qoidalari... Muqaddas Qur'oni karimning tabarruk oyatlari, payg'ambar Muhammadning hadislariga asoslanuvchi islom axloqi necha-necha avlodlarni eng olijanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalagan, ezgulik, ijtimoiy adolat, o'zaro totuvlik, birodarlik, mehribonlik kabi yuksak umumbashariy qadriyatlarni barqaror aylab, odamiylik, insonparvarlik tantanasiga xizmat qilib kelgan. Bu qadriyatlar hamon ma'naviyatimizning ustivor omillaridan bo'lib kelmoqda.

Islomning asl mohiyati u odob - axloq ekanligi Payg'ambar Muhammad hadislarida izohlab berilgan. Payg'ambar Muhammaddan so'radilar: "Yo Rasululloh, musulmonlarning afzali qaysi kishidir?". "Qo'lidan va tilidan boshqa musulmonlar ozor topmagan kishidir",- deb javob berdilar. Bu hadis orqali islom dinining mohiyatini yoritib berish mumkin. Hozirgi kunda musulmonlar orasida islom dinini zohiran tushunish omma orasida keng tarqalmoqda. Islom dini arkonlari bo'lgan iymon namoz, zakot, ro'za, haj amallari bajargan kishi taqvodor

chin musulmon bo'lib ko'zga tashlanadi. Ammo musulmonga xos bo'lgan axloqlar unda mujassam bo'lmaydi.

Atrofimizda eng yaqin do'stlarimiz yonimizda bizga hurmat keltirib, yo'qligimizda ortimizdan g'iybat, bo'hton qilmayaptilarmi?! Bir musulmon boshqa bir musulmonga tili bilan zarar keltirmayaptimi?!

Insonlar yo'lg'on so'zlamasligi borasida islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onda Alloh: **“Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqinglar, to'g'ri so'zni so'zlanglar”**, - deb marhamat qilgan [5].

Hozirgi paytda Yurtimizda axloq me'yorlarining amalga oshirilishida islomga to'g'ri kelmagan qalloblik, aldov, odam o'ldirish, jinoyatchilik ko'lami kun sayin ortib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumot berishicha, badanga qasddan og'ir jarohat yetkazish 2000-yilda 729 tani tashkil etgan bo'lsa, bu son 2022-yilga kelib, 1223 tani tashkil etgan.

Bu kabi jinoyatlar asosan aholisi musulmonlar tashkil etadigan yurtimizda sodir bo'layotgani achinarli holatdir. Muqaddas islom dinida musulmon musulmon kishining joniga qasd qilishi mumkin emas. Bu haqida Payg'ambar Muhammaddan quyidagi hadis keltirilgan. Sa'd ibn Sino Xudriydan (r.a) rivoyat qilinadi: “Payg'ambari aytdilar: “Zarar berish ham yo'qdir, zarar berganga zarar bilan javob qaytarish ham yo'qdir”[7].

Yuqoridagi hadisda “zarar berish yo'qdir”, degan gapning ma'nosi inson o'zga insonga zarar bermasligi haqida aytilgan. Zarar turli xil bo'ladi. Masalan, bir inson o'ziga manfaatli bo'lgan narsada qo'shnisiga ziyon berishligi mumkin.

Zarar yetkazmaslik deganda ulamolar, birinchi navbatda, til bilan zarar yetkazmaslikni nazarda tutishgan. Nima uchun? Tildan kelgan zarar qalbni o'yadi. Tildan kelgan zarar iymonning o'rni bo'lgan qalbni, Qur'onning o'rni bo'lgan ruhiyatni sindiradi. Hadisdagi ikkinchi ma'no ish-harakat bilan, amaliy jihatdan o'zga insonga zarar bermaslik ma'nosini anglatadi. Uchinchisi esa, insonning qo'shnisiga, qarindoshiga, tug'ishgan jigariga yoki birga ishlayotgan, hamkor bo'lib turgan insonga zarar bermaslikni nazarda tutdilar. Har uchala holat ham

Islomda ma'n qilingan hisoblanadi.

Payg'ambar Muhammad davrlarida munofiqlar toifasi ham mavjud bo'lib, ular ham namoz o'qishgan, ro'za tutishgan, haj qilishgan, dinning barcha arkonlarini bajarishgan. Ammo, tashqidan o'zlarini musulmon ko'rsatib, qalban islomda emasdilar. Shunda sahobalar dinning asl falsafasini islomning arkonlari bilan belgilaymizmi? – deb so'raganlarida, Payg'ambar Muhammad dinning mohiyatini quyidagicha ochib bergan edilar: “Kishi yolg'on so'zlamaydi, omonotdor bo'ladi, va'da bersa, va'dasining ustidan chiqadi”- deganlar. Kishilarning omonotdor bo'lish kerakligi Allohning kalomida ham keltirilgan. Qur'onda: **“Albatta, Alloh sizlarni omonatlarini o'z egalariga topshirishga buyuradi”, - deyilgan (“Niso” surasi, 58-oyat).**

Hozirgi paytda omonot degan tushincha xalq orasida juda yengil tushiniladi. Omonot deganda qanchadir miqdordagi mablag'ni saqlab turishni yoki biron buyumni qo'lida ushlab turishni tushinishadi. Ammo “Omonot” tushinchasi juda keng tushincha hisoblanad.

Insonga berilgan tana a'zolari ham omonotdir. Tilimizni yaxshi gapga ishlatyapmizmi yoki yomon gapga, yoki bizga berilgan qo'llarimizni yaxshilikka foydalanyapmizmi yoki odamlarga ozor yetkazish uchunmi?

Sizga sir sifatida aytilgan so'zlar ham bir omonatdir. Payg'ambarimiz bir hadislarida: “Bir kishi senga bir so'zni so'zlaganda, yon-atrofga qarab gapirsa, bilgilki, u so'z senga bir omonatdir. U so'zni boshqalarga so'zlama”, -degan edilar. Omonatni saqlamagan va zarar yetkizib xiyonatkorlik qilgan kishiga "xoin" deyiladi. Omonatning ziddi xiyonatdir. Bizga topshirilgan bir narsaga zarar yetkizish, burchlarimiz, ishlarimizni to'la-to'kis ado etmaslik omonatga xiyonatdir va dinimizda haromdir. Biron odamga yoki odamlarga va'da bersak, uni ado etish ham diniy bir burch sanaladi. Islom dinida ba'zi bir ibodatlar farz qilingani kabi ayrim ishlar va harakatlar ham farzdir. Shulardan biri va'da bergach, ahdida turmoqdir.

Erkaklarga juft qilib berilgan ayollar ham omonatdir. Ko'pchiligimiz uyimizdagi ahli ayolimizga ham zarar berib quyamiz. Tilimiz bilan yomon gapirib

haqorat qilamiz yoki qo'limiz bilan jazolaymiz. Oqibatda, dinimizda muqaddas bo'lgan oilalarimizning buzilishiga olib keladi. Ko'plab bolalar yetim qoladi, ota – ona tarbiyasidan batamom ayriladi. Bu esa Davlatimiz va millatimizning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Birgina 2023 –yilning yanvar—iyun oylarida O'zbekistonda nikohdan ajralishlar soni 25 400 tani tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 828 taga ko'p bo'ldi. Joriy yilning dastlabki 6 oyida Farg'ona viloyati nikohdan ajralishlar soni eng ko'p hudud sifatida qayd etilgan. Viloyatda yarim yilda 3107 ta oila ajrashgan. Keyingi o'rinlarda Toshkent shahri (2989 ta) hamda Andijon viloyati (2854 ta) keltirilgan [4].

Oilalarning ajralib ketishi jamiyatning parchalanishiga, davlat strukturasi eng kichik bo'g'ini bo'lmish oilaning zavolga yuz tutishiga olib kelmoqda. Bularning barchasi islomni to'g'ri anglab yetmaslik, unga ko'r-ko'rona yondashish tufayli kelib chiqmoqda.

Tahlil va natijalar. Islom axloqi, avvalo, har bir mo'minni o'z insonlik burchiga sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Shuning uchun maqolada musulmonlarning Alloh va payg'ambar oldidagi, ona Vatan va xalq-millat oldidagi, ota-ona va qarindoshlar, oila, butun insoniyat oldidagi, nihoyat, o'zining oldidagi burchlari mufassal bayon qilinadi.

Islom axloqi insonparvarlik har qaysi musulmonning doimiy odatiga aylanishini, har qadamda odamlarga yaxshilik qilishni, jamiyat manfaatlarini hamisha o'z manfaatlaridan ustun qo'yishni taqozo etadi. Shu tufayli muallif o'z asarida o'quvchini halollik, mehnatsevarlik, saxovat, do'stparvarlik, odob, adolat, sabr-qanoat kabi qator fazilatlar mohiyati va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati bilan tanishtiradi.

Axloqiy burchlarimiz qaysilar?

Axloq - hayotdan yoki o'qish-o'rganish va oila tarbiyasi bilan erishilgan ruhiy holat demakdir. So'zlarida, ishlarida turli holat va harakatlarida durust bo'lgan kishiga axloqli inson deyishadi.

Payg'ambar bir hadislarida: “Xulqi yaxshi bo'lgan musulmon imon jihatidan eng mukammal musulmondur”, - degan edilar.

Din insonlar bilan Alloh orasidagi munosabatlarni ham, odamlarning odamlar bilan munosabatlarini ham aniqlab bergan. Inson dunyoda boshqa insonlar bilan birga yashaydi. qaerda birdan ortiq kishi bo'lsa, u yerda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilovchi qonunlar, qoidalar, urf-odatlar bordir. Islom axloqi ham dinga asoslangan va o'z kuch- qudratini islom dinidan olgan bir axloqdir.

Axloqiy burchlarimiz qaysilar?

- Alloh va payg'ambar oldidagi burchlarimiz;
- o'z oldimizdagi burchlarimiz;
- oilamiz oldidagi burchlarimiz;
- vatan va millatimiz oldidagi burchlarimiz;
- insoniyat oldidagi burchlarimiz.

Islomdagi axloq tuhinchasini bayon etishda Payg'ambar Muhammadning hayotlari barchamizga na'muna sifatida keltirilish mumkin. Chunki Qur'ondagi jamiki yaxshi fazilatlar Payg'ambarda mujassam edi. Alloh o'z kalomida payg'ambarini ulug'ladi. **“Albatta Siz ulug' xulq ustidadirsiz”** (Qalam, 4). Payg'ambarning xulqlarini butun koinotni yaratgan Alloh maqtagan. Oisha r.a. dan Payg'ambarning xulqlari haqida so'raganlarida xulqlari qur'on edi deb javob berganlar.

Musulmon so'zlaganda uch narsaga diqqat qiladi:

- to'g'ri so'zlaydi;
- va'da bersa, va'dasida turadi;
- qo'lidan kelmaydigan masalalarda va'da bermaydi.

Payg'ambar Muhammad bir hadislarida: “Alloh sizning tashqi qiyofangizga qaramaydi. Lekin Alloh sizning ichingizga, qalblaringizga qaraydi”, — degandilar. Demak, ichki musaffolik, ruh musaffoligi islom dinida nihoyatda muhimdir. Insonning o'zi oldidagi eng muhim burchlaridan biri ham o'zini ruhiy jihatdan kamol toptirmoqdir, buzuq va yaramas fikrlardan o'zini tozalash, boshqalar haqida yomon fikr yuritishdan o'zini tiymoqdir.

Islom diniga ko'ra ikki turli xastalik bor. Biri moddiy, jismoniy xastalik bo'lsa, ikkinchisi ma'naviy xastalikdir. Jismoniy xastalik inson qiyofasida ko'zga

tashlanib, bilinib turadi. Jismimizni turli jismoniy xastaliklardan saqlash o'z oldimizdagi burchlarimizdan biridir. Ma'naviy xastaliklar inson jismida ko'rinmaydi. G'iybat, yolg'onchilik, tuhmat, hiylakorlik, aldamchilik, takabburlik, xasislik va yalqovlik kabi xastaliklardan ham saqlanmoq kerak.

Payg'ambar to'g'rilikka katta ahamiyat berar va musulmonlarni ham samimiylikka da'vat qilardilar. Bir kuni bir arab kelib Payg'ambar Muhammadga shunday dedi: "Ey Allohning elchisi, men nodon bir odamman. Menga dinda foydasi bo'lgan bir so'z o'rgatasizmi?" Shunda Payg'ambar javob berdilar: "Allohga ishon va har ishingda to'g'ri bo'l".-deb javob berganlar.

Demak quyidagi hadisdan shuni xulosa qilamizki, inson doimo gapirganda rost so'zlamog'i, har bir ishimizda adolatli va to'g'ri bo'lishimiz zarurligi aytilmoqda. Payg'ambarga vahiy tushmasidan oldin ham hech qachon yolg'on gapirmagan doimo rostgo'y bo'lganlar. Shu sababdan odamlar tomonidan "amin" ya'ni, "ishonchli" degan nom olganlar. Hattoki, Payg'ambarning dushmanlari ham uning to'g'ri so'zligini tan olgan.

Hamdardlik va saxiylik Qur'onda farz qilingan va payg'ambarning hadislarida ulug'langan. Saxiylikning ziddi bo'lgan xasislik esa harom qilingandir. Payg'ambarning bir hadislarida marhamat qiladilarki: "Saxiylik shoxlari dunyoga tushib turgan jannat daraxtlarining biridir. Kim bu daraxtning shoxlaridan birini ushlasa, u shox o'sha odamni jannatga yetaklaydi. Xasislik shoxlari bu dunyoga tupshib turgan jahannam daraxtlarining biridir. Kim bu daraxtning shoxlaridan tutsa, u shox o'sha odamni jahannamga yetaklaydi".

Islom tarixida eng katta saxovat ko'rsatuvchi, hech shubhasiz, payg'ambarimizning o'zlari edilar. Ul zotning sahobalaridan Sobir roziyallohu anhu shunday deydilar: "Payg'ambardan bir narsani so'rasang, hech qachon quruq qaytarmas edilar. Bor bo'lsa berardilar, yo'q bo'lsa, berishga va'da qilardilar". Odamlar o'rtasida sevgi va muhabbatni orttiruvchi eng muhim narsa o'zaro yordamlashish va saxovatdir. Alloh o'zining sevgan bandalarini saxovat hissidan bahramand qilgan.

Hamdardlik va sahovat sifati musulmonlarga qanchalik kerakligi va bu sifatlar

insonlarni bir biriga mehr – muruvvatli qilishda muhim vosita ekanligi ta'kidlanmoqda.

Anas ibn Molik roziyallohu anhu rivoyat qiladi: Payg'ambar Muhammad aytadilar: “Sizlarning biringiz haqiqiy iymonga erisha olmaydi, toki o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodari uchun yaxshi ko'rmaguncha”. Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati. Bu hadis islom falsafasining asosiy me'yorlarini ifodalash uchun asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

Musulmon odam chiroyli va foydali so'zlar so'zlaydi yoki sukut saqlaydi. Payg'ambar bu haqda shunday deganlar: “Allohga va oxirat kuniga ishongan kishi xayrli va foydali bir so'z so'zlasin yoki jim tursin”.

Bir kishi musulmon qardoshiga, yaxshilik tilab ixlos va samimiyat bilan uni tanqid qilsa, bu g'iybat bo'lmaydi. Chunki din qardoshining xato va nuqsonlardan qutilishiga yordamlashish ham har bir mo'mining o'z diniy qardoshi oldidagi burchidir. Bunday ish g'iybat bo'lmay, haq va haqiqatga da'vat etish hisoblanadi.

Alloh yaratgan eng buyuk maxluq insondir. Odam Allohning eng ulug' asaridir. Musulmon bo'lsin, g'ayri musulmon bo'lsin, Alloh yaratgan har bir insonning bu dunyoda yashashga haqi bor. Odam zotini yaratish ham, o'ldirish ham Allohning qo'lidadir. Odam o'ldirish gunohlarning eng kattasi sanaladi. Haqsizlik bilan odam o'ldirish yaramaydi, chunki odam o'ldirganni Alloh kechirmaydi. Qur'onda Alloh buyuradi: **“Kim qasddan bir mo'minni o'ldirsa, uning jazosi jahannam bo'lib, o'sha joyda abadiy qolajak. Va u Allohning g'azabi va la'natiga duchor bo'lgay, Alloh uning uchun ulug' azobni tayyorlab qo'ygandir”** (“Niso” surasi, 93-oyat).

Xulosa. Islom dinining asl falsafasi Allohga nisbatan xulq taslim va ta'zimda, bandaning bandaga nisbatan xulqi bir-birini hurmat qilishda, insoniylik me'yorlarida sha'ni va e'tiborini yo'qqa chiqarmaslikdir. Insonlar namoz o'qishlari mumkin. Ammo sajdaning ifodasi topilib, xulq topilmasligi mumkin.

Namoz o'qiyotgan inson ko'rinishidan axloqli bo'lishi mumkin lekin, botiniy jihatdan unday bo'lmasligi mumkin. Namoz axloqning ishorasi bo'ladi xolos, dalili ham emas, dinning asl falsafasi inson ham zohiran ham botinan go'zal

axloqli bo'lishdir. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning har bir jabhada orqada qolshining asosiy sababi ham dinning asl mohiyatiga tushinmaslikdir. Kishilarning ko'zi zohirda qotganidan, botinga, mohiyatga yetib bormaganidandir.

Hozirgi kunda musulmonlar orasida avj olib borayotgan dinga ko'r – ko'rona yondashish, dinga amal qilishda tobora o'zgarib boryapti. Insonlar islomning asl mohiyatini tshinmasdan, faqat besh mahal ibodat qilish, ramazonda ro'za tutish va boshqa amallarni bajarish bilan islom shundan iborat deb, fikr yuritmoqdalar. Asli islomning axloq dini ekanligini, uning tinchlik dini ekanligini, odamlarni aldamaslik, ortidan g'iybat qilmaslik, barchaga adolatda bo'lishlik, omonatga xiyonat qilmaslik kabi amallarni esidan chiqarib yubormoqda. Bularning barchasi islomning asl falsafasi hisoblanadi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, – T.: “O'zbekiston”. 2012. – 8 b.
2. Ismoil Buxoriy, “Al-Jome' as-Sahih”, - T.: “Qomus”. 1991. 7-b.
3. Qur'oni Karim. – T.: “Hilol-nashr”. 2021. – 427 b.
4. Davlat statistika qo'mitasi. // <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>.
5. Imom Navaviy, “Qirq hadis”.– T.: “Sharq”. 2018. 154-b.
6. Abdurahmon Qoya, “Islom axloqi“. – T.: ” Movarounnahr” 1997. 16-b.
7. <https://daryo.uz/2023/08/08/ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi>.
8. <https://kun.uz/uz/10343768>
9. Ziyoda, K. (2023). FALSAFA TARIXIDA HAQIQAT MUAMMOSINING TURLI TALQINLARI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 1(1), 351-356.
10. Абдуазимова, З.А. (2021). Философские особенности концептуального подхода в формировании экологической этики в условиях глобализации. Международный журнал по интегрированному образованию , 4 (10), 138-142.

11. Amirovna, Z. A. (2022). Theoretical and Practical Aspects of Environmental Ethics of their Manifestation in Society.
12. Abdurasulovich, D. G. O. (2023). The Question of Moral Selection in French Ecclesialism. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(8), 42-44.
13. Zhuraev, A. M. (2019). SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN IS INEXTRICABLY LINKED WITH THE PRINCIPLE OF PEACEKEEPING. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(7), 146-150.
14. jamoliddin Abduraximovich, M. (2023, November). ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIK MUHITNING O 'RNI. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 158-166)*.
15. Abduraximovich, M. J. (2022). YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TASNIFI. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (4 (19)).
16. Kurbanov, C. M., Shaniyazov, S. S., Nurfayziev, J. B., & Sherboboev, M. A. U. (2020). GEOPOLITICAL AND ECONOMIC INTERESTS OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SECOND HALF OF THE 19th CENTURY IN CENTRAL ASIA. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(7), 8521-8546.
17. Sherboboev, M. A. O. (2021). CRITICAL RATIONALISM AS A METHODOLOGICAL MEANS OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 89-97.
18. Azimmurod o'g'li, S. M. (2023). KARL POPPERNING ILMIY BILISH MANTIG 'I VA YANGI O 'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY BILISHNING O 'ZIGA XOSLIGI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 447-453.

19. Muhammadievich, J. A. (2020). Process of the transformation of peacefulness into moral need of spiritual ascension. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 4396-4401.
20. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(13), 383-390.